

NOFILOLOGIK TA'LIM YO'NALISHI TALABALARIDA LINGVISTIK KOMPETENTLIKNI INNOVATSION YONDASHUV ASOSIDA SHAKLLANTIRISH MEXANIZMI

*Dauletayarova Nigora Kenesbaevna
assistant,
NSPI, Nukus*

Murakkab, mashaqqatli, kutilmagan holatlarga boy, ammo jamiyatning zaruriy ehtiyoji hisoblangan ta'lif-tarbiya tizimini yangicha ko'rinish va yangicha mazmunda tashkil etish, dars jarayonida innovatsion pedagogik va axborot texnologiyalarni samarali qo'llash orqali ta'lif samaradorligiga erishish davr talabidir.

Nofilologik ta'lif yo'naliishi talabalarining chet tilini o'rganish uchun motivatsion sohasini shakllantirish darajasini aniqlash, shuningdek, kasbiy faoliyatida chet tilining ahamiyatini anglash darajasini aniqlash, talabalarning ixtiyoriy harakatlari va emotsiyal reaktsiyalarining intensivligini aniqlash, ularning shaxsiy va ijtimoiy shartlangan sabablari, o'z taqdirini o'zi belgilash va o'zini takomillashtirish sabablari, talabalarning chet tilidagi kommunikativ kompetentsiyasini yuqori darajada shakllantirishga harakat qilishga undash bo'yicha vazifalar ilgari surildi. [5] Chet tilidagi muloqotning motivatsion komponenti tartibga soluvchi funksiyani bajaradi va keljakdagi mutaxassisning asosiy xususiyatlari va fazilatlari yaratilishiga asos hisoblanadi.

Nofilologik yo'naliishi talabalarining chet tilidagi kommunikativ kompetentsiyasini shakllantirish darajasini baholash uchun kognitiv mezonini tanlash ularning ingliz tilida madaniyatlararo muloqot qilish qobiliyatini baholash, suhabatdoshlarini o'zaro tushunish uchun ma'lumot almashish qibiliyati, kasbiy yo'naltirilgan leksik birliklardan foydalanish qibiliyatini baholash maqsadga muvofiqligi bilan belgilanadi. [2]

Nofilologik ta'lif yo'naliishi talabalarining xorijiy til kommunikativ kompetentligi shakllanganligi darajasini baxolashning operatsion mezonini tanlash o'zida talabalarni aqliy anglash va tashqi axborotga ishlov berish, o'quv sub'ektlari o'quv-idrok faoliyatini samarali amalga oshishini ta'minlovchi, xorijiy til (grammatik, leksik, fonetik aspekt) tizimlashtirilgan bilimlarni o'zlashtirganligini baholash, mental faoliyati kontsentratsiyasini baholash zaruriyati, aqliy faoliyatini, amaliy mashg'ulotlarda refleksiya va emotsiyal reaktsiyalarining rivojlanganlik darajasini erkin nazorat qilishni aks ettiradi.

Refleksiv mezon tanlovi talabalarning kommunikativ o'zaro munosabat vaziyatlarida o'z-o'zini nazorat qilishi hamda o'z nutqiy kompetentligi darajasini tegishlicha baxolashni aniqlashni nazarda tutadi.

Tizimli yondashuv umumi metodologik tamoyil sifatida fan va inson faoliyatining turli sohalarida ob'ekt va hodisalarni o'rganish uchun ishlataladi, uning mohiyati tadqiqot ob'ektini tizim sifatida tushunish, ob'ektni mantiq va ishlataladigan vositalar sifatida o'rganish jarayonini tushunish deganidir. [10] CHet tillarni, xususan, ingliz tilini o'rganishga tizimli yondashuv myalliflik elektron o'quv materiallarida bayon etilgan bo'lib, unda grammatik, fonetik va leksika kichik tizimlar sifatida keltirilgan.

Tizimli yondashuvda Power Point dasturiy muhitida yaratilgan o'quv materialini taqdim etish chog'ida indikativ harakatlarni amalga oshiradigan uslubiy metodlar muhim rol o'ynaydi. Bunday holda, tizimli talaba-o'qituvchi o'z-o'zaro ta'siri, shuningdek, talabalar tomonidan o'quv materialini anglash va o'zlashtirishda o'qituvchining yo'naltirish faoliyati amalga oshiriladi.

Tizimli yondashuv asosida yangi leksik birliklarni qo'llash nutq qismlarida amalga oshiriladi va shaxsiy o'quv lug'atlarini saqlash ham taklif etiladi. Bularning barchasi jumla tarkibidagi tegishli bo'laklarni ega, kesim, aniqlovchi, holat, to'ldiruvchi sifatida ishlatalish imkoniyatini osonlashtiradi. [3]

Integrativ yondashuv – bu natijada yangi xususiyat yuzaga keladigan, ob'ekt, hodisa, jarayon, umumiylikni birlashtiradigan minimumi sifatidagi majmuuning yaxlit tasvirini hisoblanadi.[8]

SHaxsga yo'naltirilgan yondashuv talaba va o'qituvchi shaxsiyatlari sub'ektlari sifatida harakat qiladigan ta'lif jayaponining bip tupi cifatida tushuniladi, chunki o'rganish maqsadi talaba shaxsini, uning individyalligini va qobiliyatlarini rivojlantirishdir. [10]

Shaxsga yo'naltirilgan yondashuvning mazmuni shaxsiyatlardan kelib chiqib, talabalarning maqsad va ehtiyojlarini, til o'rganishdagi strategiya va motivatsiyalarini hisobga olishga asoslanadi. Bu yondashuv yordamida biz individyallashtirish tamoyilini qo'llash, bir vaziyat o'z-o'zini ro'yobga chiqarish uchun yaratilganligi, ularning qobiliyatlarini oshkor, kasbga yo'naltirilgan vazifalarni yechish usulini tanlash to'g'rilinga, o'z-o'ziga bo'lgan hurmatni optimallashtirish, deganidir. [1]

Gumanistik yondashuv. 1960–1970 yillarda o'rganishga gumanistik yondashuv shakllandi. Bunda o'quv jarayoni bevosita talabaning individyalligiga yo'naltiriladi. Uning qiziqish va ehtiyojlarini qondirish xorijiy tillarni yanada tezroq o'rganishga yordam beradi. Insonning individyal xususiyatlarini hisobga olgan holda o'yin vaziyatlarini yaratish orqali u jarayonga jalb qilinadi. Gumanistik yondashuv o'qituvchining shaxsiyati hali ham muhim sanalsa-da, sezilarli darajada bo'lmaydi.

Kommunikativ yondashuv. Grammatik mashq, matnlarni o'qish va tarjima qilish kabi kitob orqali o'qitish metodi yuqori texnologiyali odatiy usullar rivojlanishi bilan sekin-asta muomaladan chiqib bormoqda. Gumanistik yondashuv oxir-oqibat butun protseduraga asoslangan kommunikativ yondashuvning shakllanishiga olib keldi. Kommunikativ yondashuv doirasida matnlarni oddiygina o'qish va tarjima qilish bo'lmaydi. Ko'p o'qituvchilar buni muhokama orqali tashkil etadilar. Bu usul esa kreativ sanaladi.

Kulturologik yondashuv. Agar chet tilini o'qitish uslubiy tizimi yaratilsa, ko'pincha kulturologik yondashuv inobatga olinadi. Uning asosiy maqsadi madaniyatlararo kompetentsiyani shakllantirish bo'lib, o'rganish va muhim tamoyillari asoslangan. O'qituvchi vazifani hisobga olgan holda mashqlar to'plamini tanlashi mumkin

Og'zaki va shartli og'zaki mashqlar har doim katta ustuvorlikka ega. Bu kulturologik yondashuvda o'quv jarayonining nutq yo'nalishi tamoyildidan dalolat beradi. Bu orqali biz madaniyatlararo muloqot ko'nikmalarini shakllantirishimiz mumkin. [11]

Muammoli yondashuv. Doimiy ravishda o'tkaziladigan o'quv mashg'ulotlarining samaradorligini oshirish ilgari suriladi. Asosiy yo'nalishlardan biri – bu bir muammoga asoslangan ta'lif bo'lib, bu esa chet tilida turli aspektlarni rivojlantirishga ta'sir ko'rsatadi. Mutaxassislar kognitiv faoliyat, jumladan, barcha ong kuchlari, simulyativ ijodiyot va mustaqil tarzda muammoli topshiriqlarni yechish uchun vositalarni qidirishadi. Buning uchun talabalarga biror badiiy matnning boshlanishi o'qib beriladi. Unda aks etgan muammoli vaziyatlar va yechimi bo'yicha mulohazalarini bildirish talabalarning o'zlariga topshiriladi.

Texnologik yondashuv – talabalarning o'zaro munosabatlarga kirishish, boshqarish va ta'sir etish texnologiyalarini ishlab chiqish va joriy etish bilan bog'liq kommunikativ ko'nikma va malakalarini shakllantirish va rivojlantirishni ta'minlaydi. Bu belgilab qo'yilgan texnologik namunalarga va intizomga rioya etish, muloqot va uning turli shakllari, texnologiyasi va texnikasi, samarali muloqotning verbal va noverbal vositalarini bilish va amalda qo'llash, zamonaviy psixologik treninglar tashkil etish, muloqot sohasida o'zini-o'zi baholay olish va o'zini-o'zi takomillashtirish ko'nikmalaridir. [6]

Innovatsion texnologiyalar asosida talabalarda lingvistik kompetentlikni shakllantirishda xorijiy va respublika olimlarining mavzu doirasidagi ilmiy-nazariy qarashlari, g'oyalari ilgari surilgan fikrlari muhim ilmiy-nazariy asos bo'lib xizmat qiladi. [7]

Tadqiqotchi M.Ro'zmetovaning fikricha, lingvistik kompetentlilikni shakllantirishda "o'quvchilardan ingliz tilida muloqot qilish uchun til haqidagi ma'lumotlar, tilshunoslikning tarkibiy qismi bo'lgan fonetika, leksika va grammatikaga oid bilimlardan etarli darajada bilish talab etiladi. Mazkur jarayonda tilni o'rganuvchi nutq faoliyati turlaridan tinglab tushunish, gapirish, o'qish va yozish malakalarini chuqur egallashlari zarur"[4].

Nofilologik ta'lif yo'nalishi talabalarida lingvistik kompetentlikni shakllantirishda ularni faollashtiradigan, zerikishining oldini oladigan hamda yosh xususiyatlariga mos didaktik

o'yinlardan foydalanish ancha samaralidir. Bunda, asosan, ularning gapirish, tinglab tushunish, o'qish va yozish kabi nutq faoliyati turlarini takomillashtirish masalasi dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. O'qituvchi bu borada talabalarni guruhlarga yoki juftliklarga bo'lib ishlashini yo'lga qo'yishi, erkin muloqot yuritishlari uchun ijodiy va qulay muhit yarata olishi hamda motivsiya uyg'otishi maqsadga muvofiq. Masalan, bu borada bahorgi ishlar, kutubxona, jamoat transportida mavzulari yoki insonlarning xatti-harakatlariga oid fe'llardan foydalanib, dialoglar tashkil etish usulini ko'rsatish mumkin.

Jamiyat taraqqiyoti ijodkor insonlarning kasbiy faoliyatiga asoslanadi. Vaqt o'tishi bilan har qanday ilmiy dalillar, g'oyalar, kashfiyotlar eskirib boraveradi. SHu asosda tajriba-sinov ishlar olib borish orqali fundamental tadqiqot ishlarini bajarish ilmiy faoliyatning takomillashuviga olib keladi. [1]

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Abry, D. La vidéo en classe de FLE: vers un développement de la compétence communicative // Dissertation de master. – Paris: Université Stendhal de Grenoble, 2009. – 103 p.
2. Chomsky, N. Aspects of the theory of syntax. – Cambridge Mass. MIT press, 1965. – R. 45.
3. Ikromxonova F.I., Pozilov A.A. Oliy ta'lim myassasalarida ingliz tilidan korrektiv kurs yaratish nazariyasi va amaliyoti (nolisoniy oliy o'quv yurtlar uchun). Monografiya. – Guliston: GulDU 2019. – 117 b.
4. Ro'zmetova M. Ingliz tilini o'qitish jarayonini bosqichma-bosqich isloh qilish // Uzluksiz ta'lim. – Toshkent, 2013. – № 4. – B. 125.
5. Xidirova, D. A. Ingliz tilini o'qitishda nofilologik yo'nalish talabalari motivatsiyasi (yurisprudensiya yo'nalishi talabalari misolida) : Ped. fan. bo'yicha falsafa doktori (PhD) dis. avtoref. – Buxoro: BuxDU, 2022. – 48 b.
6. Бермус А.Г. Проблемы и перспективы реализации компетентностного подхода // Интернет-журнал «Эйдос». 2005. - 10 сентября. Электронный ресурс: <http://www.eidos.ru/journal/2005/0910->
7. Глазырин П.А., Холдеева Е.Ю. Иностранный язык в виртуальной реальности // Молодежный вестник ИрГТУ, 2016. – № 4. – С. 5–12.
8. Костина Е.А. Развитие социокультурного а профессиональной компетентности будущего учителя образовательном процессе вуза: на материале интегрированного курса «Английский языкистрановедение»: Дисс. канд. пед. наук. – Новосибирск, 2006. – 214 с.
9. Нечаева Е.С. Методика формирования социолингвистической компетенции студентов языковых факультетов педагогических вузов на основе социофонетического а: на материале английского языка: Дисс.канд. пед. наук. – М., 2010. – 216 с.
10. Сережко Т.А. Виртуальные социальные сети как среда професионализации социальных работников // Гуманитарные науки. 2018. – № 3 (43). – С. 153–161.
11. Фармонов О.А. К вопросу о внедрении компьютерных технологий в процесс обучения английскому языку // Педагогические науки. 2012. – № 6 (57). – С. 41–43.